



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Boshqaruv samaradorligini oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy asoslari	150
Askar Axrorovich Siddikov, Islomjon Umrzoq o‘g‘li Yovqochov Yashil mehmonxona va restoranlar: ekologik boshqaruv va barqarorlik	154
ИНВЕСТИЦИЯ	
Шохида Ильясовна Артикова, Дилноза Наврузовна Султонова Реальные инвестиции как фактор повышения развития экономики страны	157
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Xurshida Abdumalikovna Karjavova Sug‘urta xizmatlari bozorini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari	161
Alisher Komilovich Baxadirov O‘zbekistonda lizing oluvchilarni ijara muomalalari hisobining amaldagi holatini barqarorlashtirish yo‘llari	167
Faridun Mustafoyevich Tursunov Tijorat banklarida innovatsion masofaviy bank xizmatlarini tashkil etishning ahamiyatli jihatlari	172
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Мамаюнус Каршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусова Пардаева, Севара Абдиназаровна Бабаназарова Инсон ресурслари аналитикаси (таҳлили) фанининг вазифаларига оид фикрлар	177
Tolmasjon Namoz o‘g‘li Qurbonov “Yashil iqtisodiyot”ning iqtisodiy samaradorligini baholash tahlili	182
Otabek Olimjonovich Sobirov Boshqaruv hisobida sifat nazoratini tashkil etish va takomillashtirish	190
Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова Корхоналарда даромад ва харажатлар таснифини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш	192
Sirojiddin Haydarovich Shermamatov Uzoq muddatli aktivlar hisobi va auditini tashkil etishning muammo va istiqbollari	200
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Азимжон Фаррухович Мустафоев Нодавлат таълим ташкилотларида моддий харажатлар ҳисобини такомиллаштириш	205
To‘lqin Mardiyev, Azizbek Gafurov Qardosh bo‘lmagan tillarda iqtisodiy idioma va frazeologiyalarning leksik-semantik xususiyatlari	212
Хилола Нематовна Очилова Камбағалликни қисқартиришда олий таълим муассасаларининг ўрни ва аҳамияти	215
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Каршибаевич Пардаев 1. Энг зарур тиббий ўғитлар. 2. Онкологлар энди мени кечиришмайди. бутун дунё топмаган дардимга, биргина мева даво бўлди!!	219

Askar Axrorovich Siddikov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsent v.b., PhD
Islomjon Umrzoq o‘g‘li Yovqochov – TM-124-guruh talabasi

YASHIL MEHMONXONA VA RESTORANLAR: EKOLOGIK BOSHQARUV VA BARQARORLIK

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik tamoyillarga asoslangan mehmonxonalar va restoranlarning boshqaruv usullari hamda ularning barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida energiya tejamkorligi, suv resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash kabi ekologik boshqaruv strategiyalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, xalqaro ekologik sertifikatlash tizimlari, jumladan, LEED (Leadership in Energy and Environmental Design), Green Key (International Eco-Label for Tourism Facilities) va ISO 14001 (Environmental Management System) standartlari va ularning mehmonxona biznesida qo‘llanilishi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Yashil mehmonxona, ekologik boshqaruv, barqaror rivojlanish, yashil sertifikatlash, energiya samaradorligi, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik menejment, barqaror turizm, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Kirish. Barqaror rivojlanish tamoyillarining ahamiyati ortib borayotgan hozirgi kunda turizm va mehmonxona sanoati ekologik barqarorlikni ta‘minlash zarurati oldida turibdi. Ushbu tarmoq global miqyosda energiya iste‘moli, suv resurslaridan foydalanish va chiqindilar hosil bo‘lishi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, atrof-muhitga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilarni kamaytirish turizm va mehmonxona biznesining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda yashil mehmonxona va restoranlar konsepsiyasi keng rivojlanib, atrof-muhitga minimal ta‘sir ko‘rsatish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va resurslarni samarali boshqarish tamoyillariga asoslanmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yashil sertifikatlash tizimlari ekologik standartlarga javob beruvchi mehmonxona va restoranlarni aniqlash va rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tizimlar orqali faoliyat yurituvchi muassasalar nafaqat ekologik barqarorlikka erishmoqda, balki uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ham ta‘minlamoqda.

Mazkur tadqiqotda yashil mehmonxona va restoranlarning ekologik boshqaruv tamoyillari, xalqaro sertifikatlash tizimlarining ahamiyati, tabiiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari hamda ekologik menejmentning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi yashil mehmonxona va restoranlarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini yoritish hamda ushbu sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bizning maqolamizda yashil mehmonxona va restoranlarning ekologik boshqaruv va barqaror rivojlanishdagi o‘rni o‘rganildi. Ushbu maqsadda Butler, R.W., Gössling, S., Hall kabi olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) va Yashil Sertifikatlash Tashkilotlarining hisobotlari asosida tahlillar amalga oshirildi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda Turizm qo‘mitasining rasmiy ma‘lumotlari ham ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Olib borilgan izlanishlar natijasida yashil mehmonxona va restoranlarning ekologik boshqaruv tamoyillari hamda barqaror rivojlanishga qo‘shayotgan hissasini o‘rganishga asoslangan tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqot ekologik menejment strategiyalarini tahlil qilish va ularning amaliyotga tatbiq etilishiga e‘tibor qaratadi.

Tadqiqot kuzatish, qiyoslash, statistik tahlil va ekologik menejment usullaridan foydalangan holda olib borildi. Yashil sertifikatlash tizimlarining mehmonxona va restoranlar faoliyatiga ta‘siri, shuningdek, energiya samaradorligi, suv resurslarini boshqarish va chiqindilarni qayta ishlash masalalari ko‘rib chiqildi. Yashil texnologiyalarning joriy etilishi mehmonxona va restoran biznesining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, ularni yangi bosqichga olib chiqishi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Yashil mehmonxona va restoranlarni rivojlantirish atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim strategik yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, ekologik menejmentni joriy etish mehmonxona biznesining barqaror rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Biroq, bu jarayonda bir qator muammolar va to’siqlar mavjud.

Birinchidan, qonunchilik va byurokratik to’siqlar yashil sertifikatlash tizimlarini keng joriy etishda muayyan qiyinchiliklar tug’diradi. Ekologik standartlarga javob berish uchun mehmonxonalar turli ruxsatnomalar va litsenziyalarni olishlari kerak, bu esa vaqt va moliyaviy resurslarni talab qiladi.

Ikkinchidan, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonini sekinlashtiradi. Yashil energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini yaratish va suv tejovchi texnologiyalarni tatbiq etish katta investitsiyalarni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ko’plab kichik va o’rta mehmonxonalar ekologik loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy mablag’ga ega emas.

Uchinchidan, innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlashda mavjud bo’lgan qiyinchiliklar yashil mehmonxonalar va restoranlar sonining oshishiga to’sqinlik qilmoqda. Ekologik menejment sohasida ilg’or texnologiyalar va innovatsion echimlarni qo’llash uchun tadbirkorlar va mehmonxona sohasi vakillariga yetarli ilmiy-metodik yordam va investitsiya dasturlari zarur. Shunga qaramay, O’zbekistonda yashil mehmonxona va restoranlarni rivojlantirish bo’yicha qator ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda.

1-jadval

2019-2023-yillardagi ekologik sertifikatga ega mehmonxonalar soni

T/r	Yil	Ekologik sertifikatga ega mehmonxonalar soni
1.	2019	20
2.	2020	35
3.	2021	50
4.	2022	75
5.	2023	100+

Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2019-2023 yillar davomida ekologik sertifikatga ega mehmonxonalar soni sezilarli darajada oshgan. Masalan, 2019 yilda ekologik standartlarga javob beruvchi mehmonxonalar soni 20 taga yaqin bo’lsa, 2023 yilga kelib bu raqam 100 dan oshdi. Shuningdek, davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash choralari kengaytirilmoqda. 2023 yilda yangi ekologik talablarni joriy qilish va yashil biznes modellarini rivojlantirish bo’yicha qator qonunchilik islohotlari amalga oshirildi. Xususan, elektron ekologik audit tizimi joriy qilindi, bu esa mehmonxonalariga ekologik me’yorlarga rioya qilish jarayonini soddalashtirish imkonini berdi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, yashil mehmonxona va restoranlar bozori istiqbolli yo’nalish bo’lib, ekologik barqarorlik tamoyillarini qo’llash iqtisodiy jihatdan ham samarali ekanini tasdiqlaydi. Mehmonxona va restoran sohasida ekologik texnologiyalarni keng qo’llash turizmning jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarni jalb qilish va mehmonxona sanoatining uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, yashil mehmonxona va restoranlarni rivojlantirish nafaqat ekologik jihatdan muhim, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi. Ekologik menejment tamoyillarini joriy etish natijasida mehmonxona va restoranlar energiya sarfini kamaytirishi, suv resurslaridan samarali foydalanishi va chiqindilarni qayta ishlashni yaxshilashi mumkin. Biroq, bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator muammolarni hal qilish lozim.

Asosiy muammolar qatoriga qonunchilik va byurokratik to’siqlar, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, yashil texnologiyalarning joriy etilishidagi qiyinchiliklar va ekologik biznes modellariga bo’lgan yetarlicha motivatsiyaning mavjud emasligi kiradi. Shu sababli, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Huquqiy bazani takomillashtirish – yashil mehmonxona va restoranlar uchun maxsus qonunchilik normalarni ishlab chiqish, ekologik sertifikatlash tizimini soddalashtirish va

rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish.

2. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish – yashil biznesni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlar ajratish.
3. Moliyaviy manbalar va investitsiyalarni jalb qilish – yashil texnologiyalarni joriy etish uchun mehmonxona va restoranlarga qulay kredit tizimlarini yaratish.
4. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – energiya tejamkor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini takomillashtirish.
5. Ekologik ta‘lim va xabardorlikni oshirish – mehmonxona va restoran biznesi vakillari uchun maxsus seminarlar, treninglar va o‘quv dasturlarini tashkil etish.

Shunday qilib, yashil mehmonxona va restoranlarni rivojlantirish strategik muhim yo‘nalish bo‘lib, bu jarayonda davlat, xususiy sektor va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ekologik menejment tamoyillarini keng joriy etish natijasida mehmonxona va restoran biznesining barqaror rivojlanishi ta‘minlanadi va mamlakatning ekologik holati yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atruf-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o‘zgarishi vazirligi (2024). Ekologik barqarorlik va yashil biznes rivojlanishi bo‘yicha davlat dasturi. Retrieved from www.eco.gov.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi (2023). Yashil turizm va ekologik mehmonxona tarmog‘ini rivojlantirish. Retrieved from www.uzbektourism.uz
3. World Tourism Organization (2021). Sustainable Tourism and Green Hospitality Practices. The UNWTO Publications.
4. Tadbirkor.uz (2024). “O‘zbekistonda yashil mehmonxona va restoranlarni rivojlantirish istiqbollari.” Retrieved from www.tadbirkor.uz
5. Global Sustainable Tourism Council (2023). Sustainability Criteria for Hotels and Accommodations. Retrieved from www.gstcouncil.org
6. UNEP (2022). The Role of Hospitality in Achieving the Sustainable Development Goals (SDGs). United Nations Environment Programme.

<p style="text-align: center;">A.Siddikov, I.Yovqochov</p> <p style="text-align: center;">Перспективы экологического управления и устойчивости в зелёных гостиницах и ресторанах</p> <p>Аннотация. В статье анализируются методы управления гостиницами и ресторанами, основанные на экологических принципах, а также их вклад в устойчивое развитие. В исследовании рассматриваются стратегии экологического управления, такие как энергоэффективность, рациональное использование водных ресурсов, сокращение и переработка отходов. Также изучаются международные системы экологической сертификации, включая LEED (Leadership in Energy and Environmental Design), Green Key (International Eco-Label for Tourism Facilities) и ISO 14001 (Environmental Management System), и их применение в гостиничном бизнесе. Результаты исследования позволяют определить экономическую эффективность экологически ориентированных гостиниц и ресторанов, а также их роль в охране окружающей среды.</p> <p>Ключевые слова: Зеленая гостиница, экологическое управление, устойчивое развитие, экологическая сертификация, энергоэффективность, управление водными ресурсами, переработка отходов, экологический менеджмент, устойчивый туризм, охрана окружающей среды.</p>	<p style="text-align: center;">A.Siddikov, I.Yovqochov</p> <p style="text-align: center;">Prospects of Ecological Management and Sustainability in Green Hotels and Restaurants</p> <p>Abstract. This article analyzes the management methods of hotels and restaurants based on ecological principles and their contribution to sustainable development. The study examined environmental management strategies such as energy efficiency, efficient use of water resources, waste reduction and recycling. It also examined international environmental certification systems, including LEED (Leadership in Energy and Environmental Design), Green Key (International Eco-Label for Tourism Facilities) and ISO 14001 (Environmental Management System) standards and their application in the hotel business.</p> <p>Keywords. Green hotel, ecological management, sustainable development, green certification, energy efficiency, water resource management, waste recycling, environmental management, sustainable tourism, environmental protection.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.